
FARG'ONA SHAHAR HOKIMLIGINING BILDIRISHI

Ijtimoiy tarmoqlarda Farg'ona shahar, Sohibqiron Temur ko'chasi 33-uy yonida to'plangan chiqindi uyumlari o'z vaqtida olinmaganligi haqida murojaat e'lon qilindi. Farg'ona shahar A.Navoiy mahalla fuqarolar yig'inlari hamda Ekologiya va atrofni muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi inpektorlari tomonidan mazkur hudud ko'zdan kechirildi. Haqiqatan ham dekabr oyi oxirida noma'lum shaxslar tomonidan maxsus chiqindixona hududidan tashqari joyda qurilish va boshqa mahsulotlar chiqindisi tashlab ketilgani ma'lum bo'ldi.Ushbu hudud maxsus tozalov korxonasi tomonidan chiqindilardan tozalandi va bu hol boshqa takrormasligi uchun nazoratga olindi.Shahar hududida yashovchi fuqarolarimizni va shahrimiz mehmonlarini atrof-muhitni toza-ozoda saqlashga chaqiramiz.

2020-01-16 16:11:31